

**KUCHLI ZILZILALAR PAYTIDA KARKASLI-G'ISHTLI BINOLAR  
TO'LDIRUVCHISINING ISHLASHINI TADQIQ QILISH**

Tursunboev.A.A magistr.  
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O'zbekiston  
Email: [abruptursunboev98@gmail.com](mailto:abruptursunboev98@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ma'lumki bizning davlatimiz seysmik hududda joylashgan, shu boisdan loyhalayotgan binolarimizning zilzila bardoshligini taminlashimiz kerak. Biz ushbu maqolamizda birinchi holda karkasli bino va to'ldiruvchi sifatida g'ishtni, ikkinchi holda g'isht ham karkas ishida qatnashadi deb olgan holda ikki bino parametrlarini sonli natijalar orqali zilzila bardoshligini solishtirdik.

**Kalit so'zlar:** Seysmik, karkas, g'isht, rama, hisobiy modellar, elastiklik moduli, mustahkamlilik, deformasiya-kuchlanganlik.

### **1. Asosiy matn.**

Ma'lumki seysmik mustahkamlik tushunchasiga ko'p omillar ta'sir qiladi, jumladan qurilish davrida yo'l qo'yilgan texnologik xatoliklarni ham o'z ichiga oladi. Respublikamizning 78% hududi seysmik jihatdan faol hududlarga kirgani sababli bino va inshootlarni loyihalashda seysmik kuchlarni inobatga olish, binoning konstruktiv echimiga bog'liq ravishda konstruktiv chora tadbirlarni qo'llash muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi [1]. Ushbu maqolda karkasli bino va karkas ishida g'isht ham ishtirok etadi deb olgan holda binolarimizni ko'rsatkichlarini sonli qiymatlar orqali solishtirdik. Ko'yilgan masala respublikamizda seysmik mustahkamlik bo'yicha me'yoriy xujjat QMQ 2.01.03-19 - "Zilzilaviy hududlarda qurilish" [2] ning 3.2.5. bandida " karkas ishida ishtirok etmaydigan to'ldiruvchilar sifatida toshlar, g'ishtlar, gruntli materiallar, yengillashtirilgan bo'shlqli bloklar va siqilishdagi mustahkamligi 3,5 MPa ( $35 \text{ kgs/sm}^2$ ) dan past, zichligi esa  $600 \text{ kg/m}^3$  dan ortiq bo'lмаган engil beton bloklar (ko'pikbeton, gazobeton, penopolistirolbeton va h.k.) ishlatilishi mumkin. Bunda to'ldiruvchilar va yuk ko'taruvchi elementlar (ustunlar va yuqori rigellar) orasida 20 mm dan kam bo'lмаган tirqish qoldirilishi kerak hamda zilzila vaqtida to'ldiruvchilarning qulamasligini ta'minlovchi tadbirlar ko'riliishi lozim. Tirqishlar elastik material bilan to'ldiriladi" belgilab qo'yilgan. Hozirgi kunda qurilish ob'ektlarida ko'p qavatli binolar qurilishida aksariyat temirbeton karkasli binolarni tashkil etadi. Ularda devor to'ldiruvchisi sifatida g'ishtli, engil betondan bloklar va boshqalarni tashkil etadi. Aksariyat binolarda karkasli bino tiklangandan keyin to'ldiruvchi devorlarga me'yoriy talabni bajarmagan holda kerakli tirqishni qoldirmagan holda to'ldiriladi. Bu holda qilingan echim binoning karkasiga qay darajada ta'sir qilishi sonli va eksperimental tadqiqotlar bilan tadqiq qilishni talab etadi.

### **2. Masalaning echimi.**

Maqolada binoning karkas ramasidagi to'ldiruvchi sifatida g'ishtli devor olingan bo'lib, ikki hil variantda, jumladan karkas ramasida g'isht faqat to'ldiruvchi bo'lib, karkas ishida g'ishtli to'ldiruvchi o'zaro qatnashgan hollar lira Sapr dasturida uch o'lchamli modeli tiklanib birlik kuchlar ta'siriga hisoblangan hamda tebranish davrlari, binolarning o'qlar bo'yicha ko'chishi, armaturalanish foizlari bo'yicha solishtirilgan. Shuning uchun uch o'lchamli model tiklanib unda bo'ladijan o'zgarishlar, ulardagi bikrlik va uning natijasida deformasiyalarning o'zgarishlarini taqqoslash orqali amalga oshirildi. Quyida karkasli binoning loyihaga asosan moddelari tiklanib, yuqorida sanab o'tilgan parametrlari rangli rasimlar orqali ko'rsatilib qiymatlari alohida berildi.

(1.1-1.7 - rasmlar).

### **3. Binoning boshlang'ich ko'rsatkichlari.**

Binolarning plandagi o'lchamlari 14,1x16.6 qavat balandligi 3,6 m ni tashkil qiladi. Binoda qo'llanilgan beton sinfi B25 ni tashkil etadi. Betondan qilingan konstruktsiyalar uchun quyidagi mexanik ko'rsatkichlar olingan:

$E=300000 \text{ kgs/sm}^2$ , Puassona koeffisienti  $\mu=0.2$ , hamda betonning solishtirma og'irligi  $\gamma=2500 \text{ kgs/m}^3$  tashkil qiladi. Bino konstruktsiyasiga to'ldiruvchi sifatida ishlatilgan g'ishtli devorda bino qurilishida M75 markali g'isht ishlatilgan bo'lib, qorishmaning markasi M50 tashkil qiladi. KMK 2.01.03-19 bo'yicha devorning vaqtinchalik o'q bo'ylab bog'lanmagan choklari bo'yicha cho'zilishga mustahkamligi bo'yicha kategoriyasi II kategoriyani tashkil qiladi (normal bog'lanish)  $1,2 \text{ kgs/sm}^2 \leq R_{tb} < 1,8 \text{ kgs/sm}^2$ . G'ishtli devorning boshlang'ich elastiklik moduli SNIP II-22-81\* bo'yicha quyidagicha aniqlanadi.

$$E_0=\alpha \cdot k \cdot R$$

bu erda  $k$  koeffisient, devorning turini xarakterlovchi koeffisient bo'lib, 2 qiymat qabul qilinadi, hamda  $\alpha$  koeffisient devorning elastikligini xarakterlovchi qiymat bo'lib, devorning mustahkamlik ko'rsatkichidan kelib chiqqan holda 1000 qiymat qabul qilinadi,  $R$  devorning siqilishda mustahkamlik ko'rsatkichi. Olingen koeffisientlar bo'yicha hisob natijasiga ko'ra g'ishtli devorning elastiklik modul  $E=1000 \cdot 2 \cdot 1.3 \cdot 0.5=13000 \text{ kgs/sm}^2$  tashkil qiladi. Devorning Puasson koeffisienti  $\mu=0.25$  ni, hamda solishtirma og'irligi  $\gamma=1800 \text{ kgs/m}^3$  tashkil qiladi. Ustun va to'sinda ishchi armatura sifatida AIII mm hamda ko'ndalang armatura (xomut) sifatida AI po'lat sim ishlatilgan.

#### 4.Hisob natijalari.




1.1-rasim.Karkasniy binoni x o'qi yo'nalishida ko'chishi-405 mm




1.2-rasim.Karkasniy g'ishtli binoni x o'qi yo'nalishida ko'chishi-323 mm


Karkasniy, Karkasniy g'ishtli binolarimiz x o'qi yo'nalishidagi ko'chishlari farqi -82mm.




1.3-rasim.Karkasniy binoni y o'qi yo'nalishida ko'chishi-560 mm



Karkasniy g'ishtli binoni y o'qi yo'nalishida ko'chishi-386 mm  
Karkasniy, Karkasniy g'ishtli binolarimiz y o'qi yo'nalishidagi ko'chishlari farqi -174 mm



1.4-rasim.Karkasniy binoning kolonnalaridagi armaturalanish foizi-6.13%



1.5-rasim.Karkasniy g'ishtli binoning kolonnalaridagi armaturalanish foizi-1.32%  
Karkasniy, Karkasniy g'ishtli binolarning kolonnalaridagi armaturalanish foizlari farqi-  
4.81%

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J
ЗАГР	N п/п	Собств. зт	Рад/с.	Гц.	Периоды	Коэф. рас	Масса	Сумма масс	
11 - (мод. 33)									
11	1	0,27861	3,589251	0,571537	1,749669	0,021799	0,012616	0,012616	
11	2	0,225714	4,430378	0,705474	1,417486	1,386007	68,61948	68,6321	
11	3	0,187756	5,326074	0,848101	1,179105	0,061196	0,082436	68,71453	
11	4	0,090092	11,09972	1,767471	0,56578	-0,103	0,009671	68,72421	
11	5	0,078676	12,71033	2,023938	0,494086	-0,00056	0,000017	68,72422	
11	6	0,077358	12,92686	2,058417	0,48581	-0,67545	0,400813	69,12504	
11	7	0,07638	13,0924	2,084777	0,479668	-0,0033	0,000216	69,12525	
11	8	0,060542	16,51755	2,630183	0,380202	-0,09968	0,150277	69,27553	
11	9	0,056747	17,62196	2,806045	0,356373	-0,53431	7,972394	77,24792	
11	10	0,051106	19,56703	3,11577	0,320948	-0,00621	0,000887	77,24881	
11	11	0,046372	21,56495	3,43391	0,291213	0,007812	0,000824	77,24964	

1.6-rasim.Karkasli g'ishtli to'ldiruvchili binoning dinamik harakteristikalari.

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J
ЗАГР	N п/п	Собств. зт	Рад/с.	Гц.	Периоды	Коэф. рас	Масса	Сумма масс	
10 - (мод. 33)									
10	1	0,184556	5,418417	0,862805	1,15901	-0,03207	0,030153	0,030153	
10	2	0,176625	5,661721	0,901548	1,109203	1,333681	67,9829	68,01306	
10	3	0,085753	11,66134	1,856901	0,538532	0,01045	0,000097	68,01316	
10	4	0,079658	12,55363	1,998986	0,500254	-0,014	0,002536	68,01569	
10	5	0,073787	13,5525	2,158041	0,463383	-0,04298	0,001461	68,01715	
10	6	0,038599	25,90744	4,125389	0,242401	0,033315	0,038302	68,05545	
10	7	0,024201	41,32084	6,579751	0,151981	-0,41519	7,180404	75,23586	
10	8	0,022267	44,91019	7,151303	0,139835	-0,32963	3,426364	78,66222	
10	9	0,021952	45,55299	7,253661	0,137861	0,329554	2,452235	81,11446	
10	10	0,020505	48,76762	7,765544	0,128774	-0,01659	0,010245	81,1247	

1.7-rasim.Karkasli g'ishtli binoning dinamik harakteristikalari.  
Tebranish davrlari 1-holatda 1.75 s,2-holda 1.16 s ni tashkil etyapti.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 30.07.2020 й. ПҚ-4794. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари ма’лумотлари миллий базаси.<https://lex.uz/docs/4921703>.
2. ҚМҚ 2.01.03-19 - "Зилзилавий ҳудудларда қурилиш"